



UDK: 378.1

Charos TASHPULATOVA,
Navo'iy shahridagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent R.Isroilova taqrizi asosida

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA OCHIQ TA'LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Аннотация

Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida ochiq ta'lim platformalaridan foydalanishning metodik asoslari tahlil qilingan. O'qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar va ochiq ta'lim muhitining imkoniyatlari, xususan, masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya vositalarining o'rni hamda ularning o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil etilgan. Shuningdek, ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish metodikasi, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari, o'quvchilarning mustaqil ta'limini qo'llab-quvvatlashdagi roli ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ochiq ta'lim muhitlari, masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, raqamli kompetensiya, o'qituvchilarni tayyorlash, ochiq ta'lim platformasi.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТКРЫТЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ В ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В статье анализируются методические основы использования открытых образовательных платформ в современном образовательном процессе. Освещены возможности цифровых технологий и открытых образовательных сред в процессе подготовки педагогических кадров, в частности, эффективное использование дистанционного обучения, онлайн-курсов, виртуальных лабораторий и интерактивных ресурсов. В исследовании на научной основе анализируется роль педагогических технологий и информационно-коммуникационных средств в образовательном процессе и их значение в развитии профессиональной компетентности педагогов. Раскрываются методология использования открытых образовательных платформ, механизмы их интеграции в учебный процесс, их роль в поддержке самостоятельной работы студентов.

Ключевые слова: Открытые образовательные среды, дистанционное обучение, педагогические технологии, цифровая компетентность, подготовка учителей, платформа открытого обучения.

METHODOLOGICAL BASIS OF USING OPEN EDUCATIONAL PLATFORMS IN TEACHER TRAINING

Annotation

The article analyzes the methodological foundations of the use of open educational platforms in the modern educational process. The possibilities of digital technologies and open educational environments in the process of teacher training are highlighted, in particular, the effective use of distance learning, online courses, virtual laboratories and interactive resources. The study analyzes the role of pedagogical technologies, information and communication tools in the educational process and their importance in developing the professional competence of teachers on a scientific basis. The methodology for using open educational platforms, mechanisms for their integration into the teaching process, and their role in supporting independent learning of students are also revealed.

Key words: Open learning environments, distance learning, pedagogical technology, digital competence, teacher training, open learning platform.

Kirish. Hozirgi davr taraqqiyoti axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Ta'lim tizimi ham bu jarayondan chetda qolmay, raqamli o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Natijada an'anaviy o'quv shakllari bilan bir qatorda onlayn hamda masofaviy ta'lim imkoniyatlari keng qo'llanila boshladi. Ochiq ta'lim platformalari esa o'qituvchilarni tayyorlash hamda ularning kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim metodik vosita sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham 2017–2021 yillarda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi" [1], "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi [2] hamda ta'lim sohasidagi qator qonun va qarorlar ochiq ta'lim muhitlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ochiq ta'lim

platformalaridan foydalanish o'quv jarayonining sifatini oshirish, o'qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. O'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish asoslari A.I.Bashmakov [3], A.P.Goryashko [4], N.A.Inkova [5], G.N.Panevina [6], O.X.Turakulov [7], P.X.Djuraev [8], N.I.Taylaqov [8], I.I.Hayitova [9] kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Yuqorida keltirilgan, ya'ni mamlakatimiz, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va xorijiy davlatlarda olib borilgan tadqiqotlarda o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish asoslariga oid izlanishlar olib

borilgan bo'lib, biroq o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ochiq ta'lim platformalaridan foydalanishning metodik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan yetarlicha tadqiq yetilmagan. Shu bois ilgari surilayotgan tadqiqot, ya'ni o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ochiq ta'lim platformalaridan foydalanishning metodik asoslari bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan raqamli o'zgarishlar o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish jarayoni o'qituvchilar uchun nafaqat qo'shimcha bilim manbai, balki mustaqil o'rganish, tajriba almashish va o'z ustida muntazam ishlashning samarali usuli sifatida qaralmoqda. Ochiq platformalardan foydalanish orqali o'qituvchilar ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangi metodik yondashuvlar hamda fan-texnika yutuqlaridan tezkor xabardor bo'lib boradilar.

O'qituvchilarni tayyorlashda ochiq ta'lim resurslaridan foydalanishning metodik asoslari bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan didaktik imkoniyatlar yaratiladi. Masalan, platformalarda mavjud bo'lgan turli xil elektron darsliklar, o'quv videolari, virtual laboratoriyalar o'quv jarayonini boyitadi va an'anaviy darsliklarga nisbatan kengroq bilim manbaini taqdim etadi.

Ikkinchidan, ochiq ta'lim platformalari interaktivlik tamoyiliga asoslanganligi bois, o'qituvchilar o'zaro muloqot qilish, tajriba almashish, savol-javoblar orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon pedagogik faoliyatda hamkorlik madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, ushbu platformalar ta'limni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Har bir o'qituvchi o'zining qiziqish sohasi, ilmiy yo'nalishi yoki pedagogik ehtiyojidan kelib chiqib kerakli kurs va modullarni tanlay oladi. Natijada, ularning bilim olish jarayoni individual tarzda shakllanadi va kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish o'qituvchilarda o'zini o'zi nazorat qilish, mustaqil rejalashtirish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv kelgusida ularning o'quvchilarga mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda yordam beradi.

Shuningdek, ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish jarayonida muayyan metodik tamoyillarga rioya qilish lozim. Jumladan:

- o'quv materiallarini tizimli tanlash va ularni didaktik maqsadlarga moslashtirish;

- o'qituvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- platformadan foydalanishda individual va guruhish ish usullarini uyg'unlashtirish;

- o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratish.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ochiq ta'lim platformalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarni raqamli savodxonlik, axborot resurslari bilan ishlash madaniyati hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha muntazam tayyorlab borish zarur. Shu bois, ushbu metodik asoslarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur ishlab chiqish bugungi kun ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

O'qituvchilarni tayyorlashda ochiq ta'lim muhitidan samarali foydalanish uchun quyidagi metodik asoslar tavsiya etish mumkin:

Integrativlik – ochiq ta'lim resurslarini an'anaviy o'quv jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash.

Faollik va interaktivlik – talabalarni faol ishtirok etishga undash, muammoli vaziyatlar yaratish va ularni ochiq ta'lim muhitida hal qilishga yo'naltirish.

Refleksiv yondashuv – o'qituvchilar va talabalarining o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini ko'rib chiqish hamda rivojlanish yo'nalishlarini belgilash.

Kompetensiyaviy yondashuv – o'qituvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki metodik, axborot-kommunikativ va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish.

Individuallashtirish – har bir talabaning tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, ochiq ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan ilmiy-amaliy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Tahlillar natijasida quyidagi muhim jihatlari aniqlangan:

Birinchidan, ochiq ta'lim platformalari talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantiradi. An'anaviy dars mashg'ulotlarida bilim asosan o'qituvchi orqali yetkazilsa, onlayn platformalarda talabalar mustaqil ravishda ma'lumot izlash, o'rganish va amaliy topshiriqlarni bajarishga intiladilar. Bu esa ularning o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyatini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, ochiq platformalar yordamida ta'lim oluvchilar interaktiv o'quv muhitiga ega bo'ladilar. Masalan, virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar, onlayn seminar va vebinarlar orqali bilim olish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'lib boradi. Natijada talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshadi.

Uchinchidan, ochiq ta'lim resurslari orqali bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetensiyalar shakllanishi kuzatilmoqda. Xususan, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, onlayn darslarni tashkil etish, masofaviy ta'lim metodlarini sinovdan o'tkazish imkoniyati ularda kasbiy malakaning yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, olib borilgan tahlillar ochiq ta'lim platformalari orqali o'qituvchilar tayyorlash jarayonida individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish mumkinligini ko'rsatdi. Talaba o'z qiziqishi, bilim darajasi va tayyorgarlik holatidan kelib chiqib, kerakli resurslarni tanlashi, mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va natijalarni baholashi mumkin. Bu esa o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishga yordam beradi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish:

- ta'lim samaradorligini 25–30 foizga oshirishi mumkin;
- talabalarda raqamli savodxonlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini kuchaytiradi;

- nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi;

- ta'lim jarayonida vaqt va makondan qat'i nazar o'qish imkoniyatini yaratadi.

Demak, ochiq ta'lim platformalari o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nafaqat qo'shimcha o'quv vositasi, balki ta'lim samaradorligini oshiruvchi strategik metodik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan mulohazalar ochiq ta'lim platformalaridan foydalanish o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida metodik jihatdan katta imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. Bunday platformalar yordamida bo'lajak pedagoglarda mustaqil ta'lim olish, ijodiy fikrlash, zamonaviy

texnologiyalarni qo'llash hamda o'z ustida ishlash madaniyati shakllanadi.

Metodik asos sifatida ochiq ta'lim platformalari quyidagi vazifalarni bajaradi: ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, interaktivlikni ta'minlash, nazorat va baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, amaliy tajribani boyitish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Shu bilan birga, ularni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning

raqamli savodxonligi va pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish darajasini muntazam oshirib borish zarur.

Shunday qilib, ochiq ta'lim platformalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va ularni o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga samarali integratsiya qilish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu esa nafaqat o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga, balki kelajakda ta'lim sifatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli ““Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” Farmoni.
3. Башмаков А.И. Принципы и технологические основы создания открытых информационно-образовательных сред : монография / А. И. Башмаков, В. А. Старых; под ред. А. Н. Тихонова ; Гос. НИИ информ. Технологий и телекоммуникаций. – Москва : БИНОМ. Лаборатория знаний, 2010. – 719 с.
4. Горяшко А.П. Образование на основе компетенций в открытых информационных средах : алгоритмы принятия решений / А. П. Горяшко, Н. В. Комлева // Высшее образование в России. – 2011. – № 8–9. – С. 78–84.
5. Инькова Н.А. Проектирование открытой адаптивной информационно-образовательной среды на основе технологии генерации интегративнообщенаучного знания / Н.А.Инькова, В.Е.Подольский, Н.В.Молоткова // Информационная среда вуза XXI века: материалы IV Международной научно-практической конференции. – Петрозаводск: Издательство ПетрГУ, 2010. – С. 114–117.
6. Паневина Г.Н. Принципы разработки регионального учебно-методического комплекса в условиях открытой информационно-образовательной среды: автореферат диссертации кандидата педагогических наук / Г. Н. Паневина. – Хабаровск, 2011. – 25 с.
7. Туракулов О.Х. Ахборотлаштирилган таълим муҳитида кичик мутахассислар тайёрлашнинг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш (ахборот ва компьютер технологияларига ихтисослашган касб-хунар коллежлари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. – Тошкент, 2017. – 64 б.
8. Джураев П.Х., Тайлаков Н.И. Ахборотлашган таълим муҳити-ўқитиш самарадорлигини ошириш воситаси // Узлуксиз таълим. – Тошкент, 2004. - №3. – Б.3-7.
9. Хайитова И.И. Ахборот таълим муҳитида талабалар мустақил ишларини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш (Техник тизимларда ахборот технологиялари фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини